# 9-SINF. O‘ZBEKISTON TARIXI
# CHSB-1.

**III variant. Sana: ________________**
**Sinf ______ O‘quvchining F.I.SH.______________________________________**

**1.** ***“Ayniqsa ul xazrat Abdullaxon zamonida va shu kunlarda, ya'ni to‘qqiz yuz to‘qson uchunchi yilda obodonchilik kundan-kunga ortmoqda”.*** **Ushbu jumlalar muallifi toping. (Bilish–2,5 ball)**

A) Muhammad Solih B) Zahiriddin Muhammad Bobur
C) Muhammad Shayboniyxon D) Hofiz Tanish al-Buxoriy

**2. Shayboniylar davlatida bosh qozi yana qanday nom bilan atalgan? (Bilish–2,5 ball)**

A) qozi o‘rda B) qozi kalon C) qozi xos D) qozi rais

**3. “Muzakkiri ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”) asarining muallifi kim? (Bilish–2,5 ball)**

A) Do‘st Muhammad Sulton B) Hofiz Tanish Buxoriy
C) Ahmad Donish D) Hasanxoja Nisoriy

**4. Shayboniylar davlatida lalmi yerlarda yashab, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullangan va yarim ko‘chmanchi hayot kechirgan urug‘larni belgilang. (Qo‘llash – 4,5 ball)**

*1. Qarluq; 2. Kenegas; 3. Qang‘li; 4. Baxrin; 5. Barlos; 6. Yuz; 7. Jaloyir; 8. Saroy.*

A) 1,2,4,7 B) 2,4,6,8 C) 1,3,5,7 D) 2,3,5,8

**5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo‘llash – 4,5 ball)**

| № | Ma’lumotlar | Ha | Yo‘q |
|---|---|---|---|
| 1 | Shayboniy hukmdorlar – Suyunchxojaxon, Ko‘chkunchixon, Abu Sa'idxon davrlarida markaziy hokimiyat kuchli salohiyatga ega emas edi | | |
| 2 | Abdullaxon II ning vafotidan so‘ng taxtga chiqqan Abdulmo‘minxon hukmronligi olti yil davom etgan | | |
| 3 | Ubaydullaxonning ichki kelishmovchiliklarga barham bera olmaganligi eronliklar tomonidan Hirot ikki marta bosib olinishiga sabab bo‘lgan | | |
| 4 | Shayboniy hukmdor Abdullaxon II mamlakatni birlashtirishga, markazlashgan davlat boshqaruvini tiklashga erishadi | | |

A) 1-yo‘q, 2-yo‘q, 3-ha, 4-ha B) 1-ha, 2-yo‘q, 3-yo‘q, 4-ha

C) 1-yo‘q, 2-ha, 3-ha, 4-yo‘q D) 1-ha, 2-ha, 3-yo‘q, 4-yo‘q

**6. Quyidagilardan Shayboniyxon tomonidan Samarqandda qurilgan madrasalarni belgilang. (Qo‘llash – 4,5 ball)**

*1. Modarixon madrasasi; 2. Xoniya madrasasi; 3. Qutb Minor madrasasi; 4. Abu Said madrasasi; 5. Baroqxon madrasasi; 6. Qulbobo Ko‘kaldosh.*

A) 2,5,6 B) 2,4,6

C) 1,2,3 D) 1,3,5

**7. Quyidagi inshootlarni ularning joylashgan o‘rni bilan moslashtiring. (Qo‘llash – 4,5 ball)**

*1. Toshkent; 2. Turkiston; 3. Karmana.*

*a) Baroqxon madrasasi; b) Qosim Shayx masjidi; c) Shayboniyxon masjidi.*

A) 1-a, 2-c, 3-b

B) 1-a, 2-b, 3-c

C) 1-b, 2-c, 3-a

D) 1-c, 2-a, 3-b

**8. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo‘llash – 4,5 ball)**

| № | Ma’lumotlar | Ha | Yo‘q |
|---|---|---|---|
| **1** | Avvalgi sulolalar davrida Movarounnahr va Xurosonda yuksak darajada rivojlangan madaniy an’analar shayboniylar davrida ham davom etdi | | |
| **2** | Shayboniylar davrida mamlakat madaniy hayotining asosiy markazlari Kabul va Marv hisoblangan | | |
| **3** | Shayboniylar davri miniatyurasining oldingi davrlardagi miniatyuralardan farqi, unda oddiy xalq vakillari aks ettirilmaganligida edi | | |
| **4** | “Muzakkiri ahbob” asari O‘rta Osiyo, Eron va Hindistondagi adabiy muhit haqida boy ma'lumotlar beradi | | |

A) 1-ha, 2-yo‘q, 3-ha, 4-yo‘q

B) 1-ha, 2-yo‘q, 3-yo‘q, 4-ha

C) 1-yo‘q, 2-ha, 3-ha, 4-yo‘q

D) 1-yo‘q, 2-ha, 3-yo‘q, 4-ha

**9. Shayboniylar davlatida tovar tarzida qo‘shin ta’minoti uchun olingan soliq (a) va hukumat qo‘shinidagi askarlarga oziq-ovqat, ot, tuyalar uchun yem-xashak solig‘i (b) olingan.Quyidagilardan (a) va (b) o‘rniga mos javobni qo‘ying. (Qo‘llash – 4,5 ball)**

*1. “Tog‘ar”; 2. “Targ‘u”; 3. “Oshlig‘”; 4. “Shulen”.*

A) a-2, b-4 B) a-1, b-3

C) a-3, b-4 D) a-4, b-2

**10. Quyidagi ma’lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping. (Mulohaza –5,5 ball)**




*a) 1512 yil 28-aprelda Ko‘li malikda sodir bo‘lgan jangda g‘olib bo‘lgan;*
*b) Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda mag‘lub bo‘lgan;*
*c) 1480-yillarda Abulxayrxon vafotidan so‘ng Dashti Qipchoqning asosiy hududida o‘z hukmronligini o‘rnatmoqchi bo‘ladi;*
*d) Eron hukmdori bilan jangda halok bo‘lgan;*
*e) Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq uni qo‘llamagan. Keyinchalik Movarounnahrni tark etishga majbur bo‘lgan;*
*f) Samarqand shahrini egallash uchun kurashlar olib borib, uni egallashga muvaffaq bo‘lgan.*

A) I-b, e; II-c, d; III-f
B) I-a, e; II-b, f; III-c
C) I-b, f; II-d, e; III-c
D) I-a, b; II-c, d; III-f